

**BOLANING SHAXS BO`LIB SHAKLLANISHIDA IJTIMOIIY MUHIT VA
TA`LIM JARAYONINING PSIXOLOGIK O`RNI**

*Nizomiy nomidagi O`zbekiston milliy
pedagogika universiteti Pedagogika – psixologiya
va inklyuziv ta`lim fakulteti logopediya yo`nalishi
1 – kurs talabasi **Fayziyeva Shoxista**
shoxistafayziyeva07@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolaning tug`ilishidan boshlab, uning shaxs bo`lib shakllanishigacha qanday davrlarni bosib o`tishi, “Men” konsepsiyasining shakllanishi, shaxsiyatining shakllanishi haqida ham bayon qilingan. Bola ijtimoiylashishni boshlar ekan, unga bevosita ijtimoiy muhit ta`sir ko`rsatishi, uning keyingi faoliyatida ta`lim jarayonining o`rni haqida qisqacha bayon etilgan. Bola natal davridan boshlab bir necha inqirozlarga duch kelishi, buning esa bolaning keyingi hayotidagi salbiy va ijtimoiy tomonlari haqida ham to`xtalib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** Perinatal, natal, pubertat, shaxs nazariyalari, “Men” konsepsiyasi, inqiroz, syujetli o`yinlar, ko`z kontakti, interaktiv metodlar, refleksiya, agressiv holatlar, yetuklik

**ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ И
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ
РЕБЕНКА.**

Аннотация: В данной статье описываются этапы развития ребенка от рождения до формирования личности, формирование понятия «я», формирования его личности. По мере социализации ребенка на него напрямую влияет социальная среда, кратко описывается роль воспитательного процесса в его последующей деятельности. Ребенок сталкивается с рядом кризисов с самого рождения, обсуждаются также негативные и социальные аспекты этого кризиса в его дальнейшей жизни.

Ключевые слова: перинатальный период, натальный период, половое созревание, теории личности, концепция «Я», кризис, сюжетные игры, зрительный контакт, интерактивные методы, рефлексия, агрессивные ситуации, зрелость

Bola tug`ilgandan boshlab ijtimoiy muhit bilan hamnafas bo`ladi. Yangi tug`ilgan chaqaloq tashqi muhit bilan munosabatga kirishishni boshlaydi. Bunda bola ijtimoiylashib, shaxs bo`lib shakllanishni boshlar ekan, u bir necha inqirozlarga yuz tutushi, unga tashqi muhit ta`siri, tengdoshlari davrasidagi muhit, oila muhiti, biologik,

ijtimoiy, fiziologik omillar bolaning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsata boshlaydi. Bola perinatal davrdan, ya'ni onaning homiladorlik vaqtidan boshlab, rivojlanishni boshlar ekan. Bunda u biologik jihatdan, fiziologik jihatdan o'sib rivojlanadi. Bu davrda onaning homiladorlik vaqtidagi turli xil ayrim kasalliklar bolaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yoki boshqa atrof-muhitdagi ta'sirlar ham homilaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi yoki aks ta'sir etishi mumkin. Natal davridan so'ng, bola bir necha inqiroz davrlariga duch keladi. Bu inqirozlar bolaning umumiy shaxs bo'lib shakllanayotganda ham davom etadi. Tug'ilish davridagi inqiroz bu bolaning ilk inqirozi bo'lib, unda bola tashqi muhit bilan bog'lanadi. Ichki (biologik) va tashqi (ijtimoiy) omillar keskin o'zgaradi. Ona organizmi bilan bolaning anatomik bog'lanishi uziladi, lekin u hali mustaqil hayot kechira olmaydi. Chunki bola ona bilan fiziologik jihatdan bog'langandir, ona farzandini o'z ozuqasi bilan boqadi. Bola yangi, o'zgacha muhitda yashay boshlaydi. Bola birinchi kunlari tug'ilganidagi og'irligini yo'qotadi. Bunga tashqi dunyo sharoitiga moslashish davrida energiyaning ko'plab sarflanishi sababdir. Bola organizmining, ma'lum vaqt o'tib, tug'ilgan davridagi og'irligiga teng kelishi uning tashqi muhitga, yangi sharoitga moslashganligidan darak beradi. Odatda, chaqaloqning og'irligi 10-12 kun o'tgach, asli holiga keladi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqning psixologik hayotidagi inqirozning xarakterli tomoni kulgu bilan ko'z kontakti gavdalanadi va shu bilan birga chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishi murakkab jarayon hisoblanadi. Bolaning ona qornidaligiga nisbatan atmosferadagi hayot bola uchun qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Tashqi dunyoda bola yaqinlari bilan yig'i orqali, emotsional munosabat orqali muloqotga kirishadi. Yangi tug'ilgan bola anatomik-fiziologik tomondan hali yetilmagan bo'lib, katta kishining organizmidan o'ziga xos tomonlari bilan farq qiladi. Yangi tug'ilgan bola suyak-muskul tizimining tez o'sishi bilan kattalardan keskin farq qiladi. Ularning muskul va muskul to'qimalari juda bo'sh bo'ladi. Muskullar asta-sekin qota boshlaydi. Oldin bo'yin muskullari (bola boshini tuta boshlaydi), keyin tana muskullari (bola o'tira oladi), undan keyin esa oyoq va qo'l muskullari yetiladi, predmetlar bilan harakat qilish imkoniyati paydo bo'ladi, bola yura boshlaydi. Ayrim sodda so'zlarni talaffuz qilishni boshlaydi. Bola 3 yoshga kelganda u yana bir inqirozli holatni boshidan o'tkazadi. Inqiroz davrida yuzaga keladigan iroda, layoqat va boshqa bir qancha xususiyatlar uni shaxs bo'lib shakllanishiga tayyorlaydi. Mazkur yoshga kelib, bola o'zini kattalar bilan taqqoslay boshlaydi va kattalar qilishi mumkin bo'lgan, ular bajara oladigan harakatlarni bajarishga intiladi. Bu davr ilk bolalik davri bo'lib, bunda bolaning shakllana boshlaydi. Bola o'zini boshqalarga taqqoslay boshlaydi va o'zini baholaydi

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog`cha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining na`munalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Bu davrda bolalarning hamma narsani bilib olishga bo`lgan ehtiyoji kuchayadi. Bog`cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo`lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko`rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir. Bolaning shaxs jihatidan kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug`ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o`z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarini o`stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda syujetli-rolli o`yinlar esa o`z mavzusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o`yinlar jarayonida bolalarda sardorlik xususiyati yuzaga kela boshlaydi, ularda tashkilotchilik ko`nikma va malakalari rivojlana boshlaydi. Mazkur davrdagi bolalarning asosiy faoliyati o`yin faoliyatidir. Bu davrda bolaning tengdoshlari orasida o`zini tutishi, jamoaviy o`yinlarda qanday o`ynashi, ya`ni bunday o`yinlarda boshqa tengqurlarining fikrini hurmat qilyaptimi, tengdoshlari bilan ijobiy munosabat o`rnata olyaptimi, faqat “Mening o`zim” deb, egoizm bo`lmayaptimi yoki yo`q bularning barchasi bolaning keyingi rivojlanishiga o`z ta`sirini ko`rsatmasdan qolmaydi. Ushbu davrda bola shaxsining shakllanishida axloqiy o`z-o`zini boshqarishi, shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta`lim jarayoni maxsus dasturlar asosida o`yin, jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishga qaratilgan. Bu davrda asosiy e`tibor bola shaxsini shakllantirish, mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyatlar va maktabga tayyorgarlik ko`nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. Ta`lim faoliyati o`yin va didaktik usullar orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, “Ilk qadam” davlat o`quv dasturini amalga oshirish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarni axloqiy va aqliy sifatlarini tarkib topishi, “Men” konsepsiyasi yaratish bilan bog`liq samarali faoliyatdir.

Keyingi maktab yoshi davrida bolaning asta-sekinlik bilan ijtimoiylashuvi kengayadi. Psixik jarayonlarida ham bir qancha o`zgarishlar ro`y beradi. Diqqati uzoq muddatga barqarorlashishni boshlaydi, tafakkuri, fikrlashi kengayadi, albatta, nutqi ham ancha ravonlashishni boshlaydi. Maktabgacha yosh davridagiga nisbatan do`stlari ham ko`payadi. “Men shuni xohlayman” motividan “Men shuni bajarishim kerak” motivi ustunlik qila boshlaydi. Bu davrda esa uning asosiy e`tibori o`yin faoliyatidan, ta`lim faoliyatiga qaratiladi. D.B.Elkoninning ta`kidlashicha, o`quv faoliyatining shakllantirilishi bu faoliyat ayrim kishilar bajarilishini asta-sekinlik bilan o`quvchining o`ziga o`qituvchining ishtirokisiz mustaqil bajarish uchun o`tkazilishidir.

Bu davrda ular egallaydigan ta`lim jarayonidagi bilimlari, hayotining keyingi yillarida egallaydigan bilimlari uchun poydevor vazifasini bajaradi.

O'smirlik davriga kelganda esa bolada keskin davr boshlanadi. Ushbu davrda o'smir baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin kattalar hayotida hali o'z o'rnini topa olmagan holatda bo'ladi. Bu davr "O'tish davri", "Krizis davr", "Qiyin davr" kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlar bilan xarakterlanadi. Chunki bu yoshdagi o'smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O'z davrida L.S.Vigotskiy bunday holatni "Psixik rivojlanishdagi krizis" deb nomlagan. O'smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo'lmaydi. Jinsiy yetilish o'smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi xususiyatlar xosdir. O'smirlik davrida ta'lim jarayoni jismoniy va psixik o'zgarishlar, mustaqillikka intilish va tengdoshlari ta'siri bilan xarakterlanadi. Samarali ta'lim uchun interaktiv metodlar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, refleksiya va psixologik qo'llab-quvvatlash muhimdir. O'smirni axloqiy o'zini anglash va ijtimoiy moslashuvga o'rgatish asosiy vazifa hisoblanadi.

Kattalarga nisbatan yomon munosabatning paydo bo'lishi, noxush xulq-atvor alomatlari, o'smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar, uning tengdoshlari va turli jamoalardagi mavqeyi, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirish yo'li bilan o'smirlarning xulq-atvoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'smirlar nihoyatda taqlidchan bo'lib, ularda xali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan bo'ladi. Ular tashqi ta'sirlarga va hissiyotlarga beriluvchan bo'ladilar. Bunday davrlarda ota-onalari farzandlarini qattiq urushmasliklari, farzandlarining fikrini eshitishlari, ularning orzu-maqсадlari haqida gaplashib, ularga imkoniyat yaratib berishlari, lekin farzandlarining ham hamma og'zidan chiqqan narsalarini muhayyo qilishlari mutlaqo noto'g'ri. Agar ota-onalar shunday xatolarga yo'l qo'yishsa, bolada agressiv harakatlar, holatlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bolalarning bunday agressiv holatlarga tushib qolishiga faqat oila muhiti emas, balki boshqa omillar ham sababchidir. Bulardan biri tengdoshlari davrasidir, bunda o'smir tengdoshlari bilan munosabatlar o'rnatilmasliklari yoki munosabatdagi qiyinchiliklar, tushunmovchiliklar sabab bo'lishi mumkin. Yoki bu organizmga bog'liq bo'lishi, ya'ni bu davrda gormonal o'zgarishlar ro'y berish holatlarining kuzatilishi, bu esa ularda turli xil norozilik ko'rinishlarida namoyon bo'lishi mumkin. O'smirlar kattalarning ularga bildiradigan ishonchlariga katta ehtiyoj sezadilar. Kattalarning o'smir yoshdagilarga ta'sir ko'rsatishi, tarbiya berishi uchun eng qulay sharoit – bu umumiy mehnat bilan shug'ullanishdir. Bunday vaziyatlarda kattalar va o'smirlarning birgalikda mehnat qilishi shunchaki ish bajarish emas, balki psixologik

yaqinlashuv jarayonidir. Mazkur holatlarda o'smirlarda tenglik hissi shakllanadi. Mehnat jarayonida "Buyruq beruvchi" va "Ijrochi" o'rtasidagi masofa kamayadi. O'smir o'zini kattalar bilan birdek mas'uliyatli va kerakli his qila boshlaydi. Quruq nasihatdan ko'ra, kattalarning qiyinchilikni qanday yengishi va ishga bo'lgan munosabatini ko'rish o'smir uchun jonli dars vazifasini o'taydi. Birgalikda ishlash davomida samimiy suhbatlar uchun tabiiy imkoniyat tug'iladi. Bu o'smirning o'z muammolarini ochishiga va kattalarning maslahatini qarshiliksiz qabul qilishiga yordam beradi. O'smirlik, ya'ni pubertat davrida mustaqillikka intilish kuchli bo'ladi. Bunday holatlarning barchasi birgalikdagi mehnat o'smirning shaxsiyatini tan olish va unda mehnatsevarlik, jamoaviylik hamda iroda kabi sifatlarni shakllantirishning eng samarali yo'lidir.

Keyingi davrlar, ayniqsa, yetuklik davri shaxs shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrda odam o'zining barcha kuch-quvvati, qobiliyati, aql-zakovati, ichki imkoniyatlarini o'z kasbiga, ijtimoiy faoliyatga to'la safarbar qila oladi. Yetuk shaxsning boshqalarga munosabati, ularni baholashi, dinamik stereotipida sezilarli o'zgarishlar paydo qiladi. Mazkur davr insonning o'zini anglashi, kasbiy rollarni egallashi va jamiyatda mustahkam o'rin topishi bilan tavsiflanadi. Shaxs intellektual va ma'naviy jihatdan eng yuqori cho'qqisiga ko'tariladi, ijtimoiy-psixologik rivojlanish, oila qurish va oilaviy hayotga mas'uliyat shakllanadi. Ushbu davrda u har tarafлама shaxs bo'lib shakllanadi. Unda bir qancha holatlar yuz beradi, shaxs o'zining imkoniyatlarini to'liq tushunib yetadi, oila, jamiyat va mehnat jamoasida o'z ijtimoiy vazifalarini chuqur his qiladi. U faqat o'zi uchun emas, balki yon-atrofdagi insonlar uchun ham javobgarligini his qila boshlaydi. Turmushning ikir-chikirlari, ijtimoiy hodisalarga vazmin, sabr - toqat bilan hayot tajribasiga suyangan holda munosabatda bo'ladilar, har bir ishning nozik tomoni yoki yomon oqibati haqida o'z fikrlarini bildiradilar. Hayotda qoldan boy bergan imkoniyatlari, xato va kamchiliklari haqida o'ylay boshlaydilar va kelajakda bunday xatolarni qilmaslikka harakat qiladilar. Shaxsning nazariy jihatdan olgan bilimlari, uni amaliyotda qo'llashi uni kamolot sari yetaklaydi. U ijtimoiy-kasbiy jihatdan rivojlanib borar ekan, endi u kasbiy faoliyatida nazariy va amaliy bilimlarni egallay boshlaydi. Hayotiy va kasbiy ko'nikma va malakalari shakllanadi. Keyingi davrlarda ham shaxs shakllanib boraveradi. Shuni ham ta'kidlash joizki, "Har bir shaxs individualdir", uning qobiliyati, temperamenti o'ziga xos xususiyatga egadir.

Shunday qilib, shaxs shakllanishi hech qachon to'xtamaydi, inson umrining oxirigacha uning shaxsiyati takomillashib boradi. Har bir davrning o'ziga xos inqiroz davrlari mavjuddir. Bunday inqiroz paytlarida biz bolalarni, o'smirlarni, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlay olishimiz kerak. Bolaga yoshligidan to'g'ri ta'lim-tarbiya berish, uning keyingi rivojlanishida uni kamolot sari yetaklaydi. Bolaning shaxs bo'lib shakllanishida ijtimoiy muhitning o'рни kattadir. Shuning uchun ota-onalar

farzandlarini doimiy ravishda nazoratda ushlab turishlari kerak. Nafaqat ota-onalar, balki biz kattalar ham ularning kelajagiga, rivojlanishiga befarq bo'lmashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.G.Davletshin, Sh.Do'stmuhammedova, S.To'ychiyeva, M.Mavlonov, M.Jumabayeva: "Yosh davrlar va pedagogik psixologiya" o'quv qo'llanma Toshkent-2009
2. <https://Maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz> "O'smirlik davrida axloqiy o'zini o'zi anglashni ijtimoiy psixologik xususiyatlari".
3. <https://ilmiyanjumanlar.uz> "Yetuklik davrida psixologik rivojlanishning asosiy xususiyatlari"
4. N.Islomova, D.Andullayeva "Ijtimoiy psixologiya" o'quv qo'llanma Toshkent-2013
5. V.M.Karimova "Ijtimoiy psixologiya" darslik Toshkent-2012
6. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" darslik Toshkent-2018
7. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15504357> "Rivojlanishning yosh bosqichlarida inqiroz davri muammosi va bu jarayonda psixologik yordam"
8. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15491578> "Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda "Men" konsepsiyasini shakllantirishda rivojlanish markazlarining o'rni